



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 3-iyul, № 135 (9030)

Payshanba

Saytimgiz o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON VA OZARBAYJON: AZALIY DO'STLIK VA ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARI YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 2-iyul kuni davlat tashrifi bilan Boku shahriga keldi.



Poytaxtdagi Haydar Aliyev nomidagi aeroportda davlatimiz rahbarini Ozarbayjon Bosh vazirining birinchi o'rinbosari Yaqub Ayubov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

«Zagulba» qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.

Qarorgoh oldidagi maydonda ikki davlat bayroqlari ko'tarildi, faxriy qorovul saf tordii.

Oliy martabali mehmonni Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev samimiy kutib oldi.

Davlat madhiyalari yangradi. Harbiy orkestr sadolari ostida faxriy qorovul davlat rahbarlari oldidan saf tortib o'tdi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev tor doirada uchrashuv va Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig'ilishini o'tkazdilar.

O'zbekiston — Ozarbayjon do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarida kooperatsiya va almashinuvlarni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz bu galgi davlat tashrifi va Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig'ilishi mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligi nishonlanayotgan yilda o'tayotganini alohida ta'kidladi.

— Munosabatlarimiz tarixda hych qachon bugungidek yuksak darajada

bo'lmagan, — dedi O'zbekiston yetakchisi.

Prezidentlar ko'p qirrali hamkorlik barcha darajalarda jadal rivojlanib borayotganini qayd etdilar. Kuni kecha Xiva shahrida birinchi Parlamentlararo forum bo'lib o'tdi. Bokuda Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va Hududlar forumi samarali o'tdi. Yaqinda Andijonda ilk bor rektorlar forumi tashkil etilib, 60 dan ortiq shartnoma imzolandi. Ozarbayjonning «Shirvon» ansambli Xiva baxshichilik festivali Gran-prisini qo'lga kiritdi.

Iqtisodiy kooperatsiya yilida tovar ayirboshlash hajmi 25 foizga oshdi. Loyihalar portfeli 4 milliard dollarga yetgan. 300 ga yaqin qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Parlamentlar, hukumatlar, vazirliklar va hududlar darajasidagi amaliy hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi. Xalqaro tuzilmalar doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlash muhimligi ta'kidlandi.

Tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmini yiliga 1 milliard dollarga yetkazish imkoniyatlarini atroflicha ko'rib chiqildi. Sanoat, infratuzilma, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, turizm, bank va boshqa sohalaridagi loyihalarni o'z ichiga olgan alohida Kooperatsiya dasturi qabul qilinayotgani ta'kidlandi.

Qo'shma investitsiya kompaniyasi faoliyatini kengaytirish muhimligi qayd etildi. Tadbirkorlar kengashi hamda Sanoat va iqtisodiy zonalar forumi kabi hamkorlikning yangi formatlari qo'llab-quvvatlandi.

Transport-kommunikatsiya sohasidagi sheriklikka alohida e'tibor

qaratildi. O'rta yo'lakni rivojlantirishda ishtirok etish loyihalari muhokama qilindi.

Ushbu yo'lak orqali tashilayotgan O'zbekiston yuklari hajmi 25 foizga — 1 million tonnadan ziyodga oshgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bundan tashqari, joriy yil mart oyidan boshlab yuk tashishda elektron ruxsatnomalarga o'tish ta'minlandi.

Shuningdek, Yevropaga elektr energiyasini eksport qilish bo'yicha qo'shma loyihani tayyorlashni jadalashtirishga kelishib olindi.

Diplomatik munosabatlar yubileyini munosib nishonlash maqsadida tomonlar joriy yilning kuzida qator qo'shma madaniy va yoshlar tadbirlarini o'tkazishga qaror qildilar.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Majlisda Hukumatlararo komissiya hamraisilari, transport, energetika va madaniyat vazirlarining muzokaralar kun tartibi yuzasidan hisobotlari tinglandi.

Yig'ilish yakunlari bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni qabul qilishga kelishib olindi. Boku shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig'ilishi qarorini qabul qildilar.

Davlat rahbarlari huzurida qator ikki tomonlama hujjatlar almashildi. Shu jumladan: — Ittifoqchilik munosabatlarini o'tkazildi.

— Ittifoqchilik munosabatlarini o'tkazildi.

—2029-yillarda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»;

— Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitim;

— Fan, kasb-hunar va oliy ta'lim sohalarida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitim;

— 2025-2026-yillarga mo'ljallangan sanoat kooperatsiyasi dasturi;

— 2030-yilga qadar tovar ayirboshlashni 1 milliard dollarga yetkazish dasturi;

— 2025 — 2027-yillarda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ta'minoti sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy harakatlar rejas;

— 2025 — 2027-yillarda ijtimoiy chimora sohasida hamkorlik bo'yicha chora-tadbirlar rejas;

— Kemachilik va kemasozlik sohasida hamkorlik to'g'risida bayonoma;

— Toshkent viloyati va Sumgait shahri, Navoiy va Gabala shaharlari o'rtasida birodarlik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi kelishuvlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda muzokaralar yakunlari yuzasidan fikr bildirilar.

Davlatimiz rahbari so'zining avvalida O'zbekiston Prezidenti Ilhom Aliyev rahbarligida Ozarbayjonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil yangilanishlar va mamlakat erishayotgan yuksak natijalardan chin dildan xursand ekanini ta'kidladi.

— Siz otangiz va har bir ozarbayjonlikning azaliy orzusini ro'yobga chiqaradigiz — mamlakat hududiy yaxlitligini tikladigiz. Qaytarib olingan hududlarning iqtisodiyoti va infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha faol ishl olib boryapsiz, — dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Ozarbayjon O'zbekistonning ishonchli ittifoqchisi va strategik sherigi ekanini ta'kidladi. Bizning maqsadlarimiz, qarashlarimiz va intilishlarimiz o'xshash. Xalqlarimizni azaldan qardoshligimiz va o'zaro ishonchimiz asosini tashkil etayotgan tarix, qadriyatlar, til va madaniyat bog'lab turibdi.

Davlatimiz rahbari bo'lib o'tgan Oliy davlatlararo kengash ikkinchi yig'ilishining samarali natijalarini, uning yakunida muhim qaror va kelishuvlar qabul qilinganini yuksak baholadi.

Bu galgi sammitga jiddiy tayyorgarlik ko'rilgani ta'kidlandi. Birinchi Parlamentlararo forum, Hukumatlararo komissiya yig'ilishi, hududlar va rektorlar forumlari, siyosiy maslahatlashuvlar, qator madaniy tadbirlar muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Muzokaralarda ikki mamlakat o'rtasida Ittifoqchilik munosabatlarini o'tkazildi.

to'g'risidagi shartnomani keng ko'lamda amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Xalqaro maydonda yaqin aloqalarni mustahkamlash va o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirishga qat'iy intilish tasdiqlandi. Ko'plab dolzarb global va mintaqaviy muammolar bo'yicha pozitsiyalar mos kelishi qayd etildi. Shu ma'noda, davlatimiz rahbari O'zbekiston barcha o'tkir muammo va ziddiyatlarni faqat tinch yo'l bilan, diplomatik sa'y-harakatlar orqali hal etish tarafdori ekanini ta'kidladi.

Muzokaralar chog'ida ikki tomonlama savdo va investitsiyalar hajmini yaqin yillarda 1 milliard dollarga yetkazish bo'yicha qo'shma amaliy choralar ko'rishga kelishib olindi. Savdo va kooperatsiyani rag'batlantirish bo'yicha alohida dastur qabul qilindi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida hamkorlikning amaldagi formatlari kengaytiriladi va yangi formatlari yo'lga qo'yiladi. Gap Tadbirkorlar kengashini tuzish hamda Sanoat va iqtisodiy zonalar forumini o'tkazish haqida bormoqda.

Yetakchilar transport jihatidan o'zaro bog'liqlikni kuchaytirishga alohida ahamiyat qaratdilar. Bugungi kunda mamlakatlarimizni rag'batlaydigan va boshqa strategik yo'nalishlarga chiqish imkonini beradigan O'rta yo'lak faol rivojlanayotgani ta'kidlandi. Xususan, bahordan boshlab ushbu yo'lakda elektron ruxsatnomalar ishga tushirildi. Shu bilan birga, O'zbekiston yuklarini tashish hajmi 25 foizga oshdi. Ularning yillik hajmi bir million tonnadan ortdi.

Yevropaga "yashil" energiya eksporti bo'yicha qo'shma loyihani ilgari surishda erishilgan yutuqlar qayd etildi. O'zbekistonda bo'lajak "Ozarbayjon" bog'i va noyob «Sea Breeze» sayyohlik majmuasi loyihalari faol tayyorlanayotgani ta'kidlandi.

Joriy yilda ikki qardosh mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligi nishonlanishi munosabati bilan ushbu muhim sanaga bag'ishlangan yirik tadbirlar, konsertlar va yoshlar forumlarini birgalikda o'tkazishga kelishib olindi.

So'zining yakunida davlatimiz rahbari hamkorlikka oid qo'shma loyiha va dasturlarni qo'llab-quvvatlayotgani uchun ozarbayjonlik hamkasbiga minnatdorlik bildirdi. Ozarbayjonga bu galgi davlat tashrifi natijalari ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga, qardosh mamlakatlar va xalqlarning barqaror taraqqiyoti va farovonligiga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi doirasida Boku shahrida «O'zbekiston» bog'iga tamal toshi

qo'yishga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.

Yangi bog' poytaxtning nufuzli va jadal rivojlanayotgan «Oq shahar» mavzesidan o'rin oldi.

Loyihaga ko'ra 4,5 gektar maydonda O'zbekistonning boy madaniyati va an'alarini namoyish etadigan ulkan majmua barpo etiladi.

Bog' hududida yurtimiz me'moriy obidalarini nuxxalari, sayilgohlar, yashil hududlar, mehmonxona, turli savdo va ko'ngilochar maskanlar tashkil etiladi. Binolar qurilishi va bezagida o'zbek milliy me'morchiligi an'alarini hamda naqshlaridan foydalaniladi.

Marosimda ikki davlat rahbarlari birgalikda bog' poydevoriga ramziy kapsula qo'yib, ushbu muhim loyiha qurilishini boshlab berdilar.

Shundan so'ng mamlakatimizning Boku shahridagi elchixonasi yangi binosining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev ishtirok etdilar.

Yetakchilar ramziy tasmani kesib, diplomatik vakolatxonaning yangi binosini tantanali ravishda ochdilar.

Davlat rahbarlari diplomatlarning ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan samarali faoliyati uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Elchixona zallari O'zbekiston hududlari nomi bilan atalgan. Prezidentimiz xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlik ramzi sifatida zallardan biriga Qorabog' nomini berishni taklif etdi.

Yakunda Prezidentlar elchixonaning Faxriy mehmonlar kitobiga tilaklarini yozib qoldirdilar.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjonga davlat tashrifining birinchi kuni yakunida Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev hamrohligida «Sea Breeze» dam olish majmuasi faoliyati bilan tanishdi.

Tashrif chog'ida Kaspiy dengizining G'arbiy sohilidagi ushbu yirik xalqaro sayyohlik markazi faoliyati haqida taqdimot o'tkazildi.

Davlatimiz rahbariga bu yerda yaratilgan sharoitlar, dam olish zonalar, plyajlar, sport maydonchalari, mehmonxonalar, kottejlar va turarjoy majmualari haqida ma'lumot berildi.

Loyiha zamonaviy «Kaspiy riverasi»ga aylangan. Kurort qariyb 500 gektar maydonni egallagan. Bu yerda 6,5 kilometrlik plyaj zonasi, 150 gektar maydonda yashil hududlar va dam olish obyektlari mavjud bo'lib, 700 mingga yaqin daraxt va butalar ekilgan.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi davom etmoqda.

O'Z.A.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Dunyo nigohi

O'ZBEKISTON VA OZARBAYJON ALOQALARI — GLOBAL IQLM MUAMMOLARI SHAROITIDA MUVAFFAQIYATLI MINTAQAVIY SHERIKLIK NAMUNASI

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi arafasida ushbu mamlakatning yetakchi bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida ikki tomonlama munosabatlarining buguni holati hamda istiqbollarga bag'ishlangan turkum maqolalar e'lon qilinmoqda.

Xususan, "525-gazeta" yangiliklar portalida O'zbekistonning Ozarbayjondagi elchisi Bahrom Ashrafxonov bilan intervyu e'lon qilindi.

Unda diplomat Ozarbayjon bilan erishilgan sheriklik darajasi

hamda barcha sohadagi hamkorlik yutuqlari haqida batafsil so'zlab bergan.

Intervyuda O'zbekiston va Ozarbayjon hamkorligi global iqlim muammolari sharoitida muvaffaqiyatli

mintaqaviy sheriklik namunasini ko'rsatayotgani qayd etilgan.

So'nggi yillarda xalqaro konferensiyalarda, jumladan, MDH, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ham faol tajriba almashilmoqda. Bu hamkorlik yuqori darajadagi vazirlar uchrashuvlari, delegatsiyalar almashinuvi va muhim xalqaro forumlarda birgalikda qatnashish orqali mustahkamlanaypti.



Fikr

QADRIYATLAR VA EZGU MAQSADLAR MUSHTARAKLIGI

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida 1995-yil 2-oktyabrda diplomatik munosabatlar o'rnatilgan bo'lsa-da, bu buyuk ikki xalqni asrlar, ming yillar mobaynida bir-biriga bog'lab kelgan o'xshash jihatlar, qardoshlik rishtalari mavjud.

Mamlakatlarimiz davlat mustaqilligiga erishgach, tarixiy do'stlik va qardoshlik munosabatlarini yanada rivojlanib, bugungi kunda strategik darajaga ko'tarildi. Ikki mamlakat Prezidentlarining siyosiy irodasi, uzoqni ko'zlab yuritayotgan siyosati, hych mubolag'asiz, do'stlik aloqalariga yangi ruh bag'ishladi.

Ikki davlat o'rtasidagi siyosiy hamkorlik ochiq va konstruktiv

muloqot tamoyillariga asoslanadi. Mamlakatlarimiz tashqi siyosat idoralari o'rtasidagi muntazam maslahatlashuvlar, BMT, Qo'shimlaslik harakati, TDT, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa mintaqaviy hamda xalqaro tuzilmalar doirasidagi yaqin sheriklik mintaqaviy va global rivojlanishning ko'plab dolzarb masalalari bo'yicha O'zbekiston va Ozarbayjon

pozitsiyalarining o'xshashligini tasdiqlaydi.

Keyingi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi barqaror sur'atda oshib bormoqda. U 2024-yil yakuniga ko'ra 250 mln. dollardan oshdi. Shu bilan birga, tomonlar kelgusi yillarda uni bir necha barobar oshirishga intilayotir. Bunga mamlakatlar o'rtasida o'rnatilgan erkin savdo rejimi va joriy yilning iyun oyida Bokuda so'nggi yig'ilishi bo'lib o'tgan hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo qo'shma komissiya yaqindan ko'maklashmoqda.



O'ZBEKISTON VA OZARBAYJON ALOQALARI – GLOBAL IQLIM MUAMMOLARI SHAROITIDA MUVAFFAQIYATLI MINTAQAVIY SHERIKLIK NAMUNASI

2023-2024-yillarda O'zbekiston va Ozarbayjon vakillari iqlim bo'yicha qator muhim tadbirlarda ishtirok etdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi (COR28 va COR29) ishtirokchilari konferensiyasining 28 va 29-sessiyalarida qatnashish alohida ahamiyatga ega bo'ldi, degan elchi.

O'zbekiston rasmiy vakili, shuningdek, yoshlar va ta'lim sohasidagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash ham hamkorlikning muhim yo'nalishiga aylanganini urgulagan. 2023-2024-yillarda Samarqand shahrida o'tkazilgan Xalqaro ekologik oromgohda ozarbayjonlik yosh faollari hozir bo'ldi. Tadbir "Zamin" jamg'armasi shafeligida vazirliklar va xalqaro tashkilotlar ishtirokida madaniyatlararo almashinuvni rivojlantirish va yangi avlodning ekologik ongini shakllantirish maqsadida uyushtirildi.

"O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi ekologiya va iqlim o'zgarishi sohasidagi sheriklik munosabatlari nafaqat ikki davlat, balki butun mintaqa barqaror rivojlanishining muhim omiliga aylanayotir, – deydi mamlakatimiz diplomatik missiyasi rahbari. – Iqlim diplomatiyasi, ilmiy almashinuv, ekologik ta'lim va xalqaro hamkorlik sohasidagi qo'shma qadamlar tabiatni muhofaza qilish va kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kelgusi hamkorlik uchun mustahkam zamin yaratadi".

Ozarbayjonda ommabop bo'lgan "Turkic World" yangiliklar portali ikki tomonlama sheriklikning asosiy ustuvor yo'nalishlari va uning natijalariga bag'ishlangan "O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga tahliiy yondashuv" sarlavhali maqolani o'z o'quvchilari e'tiboriga taqdim etdi.

Nashrdan so'nggi yillarda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarning strategik xususiyatini aks ettirgan holda jadal rivojlanib borayotgani ta'kidlangan. "Ikki mamlakat o'zaro tovar ayirboshlash hajmini faol oshirib, o'zaro yetkazib berish turlarini, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, neft-kimyo va mashinasozlik sohalarida kengaytirayotir", deyiladi materialda.

Maqolada o'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari bo'yicha muhim ma'lumotlar keltirilgan. "So'nggi 8 yil ichida tovar ayirboshlash hajmi 7,8 barobar oshib, 2024-yilda 253 million dollarni tashkil etdi. O'zbekistonning Ozarbayjonga eksporti 7,5 barobar ortib, 208 million dollarni, importi esa o'tgan yili 9 barobarga oshib, 45 million dollarni tashkil qildi", deb yozilgan elektron portaldan.

Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2024-yil sentyabr oyida iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi delegatsiyasi

mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'rganish maqsadida Ozarbayjonga tashrif buyurgani xabar qilingan. "Bu tajriba davlat siyosatini ishlab chiqish jarayoniga integratsiyalashgan amaliy tahliiy ish modeliga aylandi. Tashrif doirasida davlat organlari, maxsus iqtisodiy zonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va tadbirkorlik subyektlari bilan 20 dan ortiq uchrashuvlar uyushtirildi. O'rganish davomida 18 ta tarmoq bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazildi, jumladan, asosiy ko'rsatkichlar, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, investitsiya salohiyati, tovarlarning qiyosiy afzalliklari va asosiy islohotlar o'rganildi", deya qayd etiladi manbada.

Ta'kidlanishicha, 2024-yil noyabr oyida Ozarbayjon delegatsiyasining O'zbekistonga javob tashrifi tashkil qilindi. Tashrif doirasida davlat organlari, maxsus iqtisodiy zonalar, tadbirkorlik subyektlari va oliy ta'lim muassasalari vakillari bilan 14 ta uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvlar yakunlari bo'yicha ozarbayjoniy mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning keyingi yo'nalishlari bo'yicha takliflar ro'yxatini tayyorladi.

"Ikki tashrifdan so'ng bildirilgan takliflar kelgusi 5 yilga mo'ljallangan mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik bo'yicha "Yo'l xaritasi" loyihasiga kiritish uchun ko'rib chiqilmoqda. Shunday qilib, tahliiy doiralarning o'zaro tashriflarining sinovdan o'tgan modeli allaqachon amaliy tahliini institutsionalashtirish hamda sanoat va raqamli rivojlanishni jadallashtirish namunasiga aylanib bormoqda", deya urg'ulangan "Turkic World" maqolasida.

Mazkur davlatning yetakchi bosma nashrlaridan biri – "Yeni Safak" gazetasida chop etilgan maqolada O'zbekiston va Ozarbayjon yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan hamda iqtisodiyot uchun sezilarli darajada foyda beruvchi ishlab chiqarish tarmoqlarida istiqbolli loyihalarni izlash va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratayotgani ma'lum qilingan.

"Bu yo'nalishda O'zbekistonda rivojlangan to'qimachilik va tikuvchilik tarmog'i tufayli katta talabga ega bo'lgan yangi uglevodod mahsulotlari, masalan, sintetik gazlamalar, shuningdek, keng to'qimachilik mumkin bo'lgan uglerod tolasini qo'shma ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish istiqbolli ko'rinadi", deb ta'kidlanadi materialda.

Shuningdek, maqolada agrosanoat, transport, savdo, turizm, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi hamkorlik istiqbollari batafsil tahlil qilingan.

Maqola "O'zbekiston va Ozarbayjon tajribasi, ilmiy tadqiqot faoliyati va tadbirkorlik amaliyoti yuqori integratsiyasi nafaqat hamkorlikni rivojlantirishning yangi yo'nalishlarini belgilash, balki ularni davlat darajasida muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi", degan so'zlar bilan yakunlangan.

"Dunyo" AA.
Boku

Senator va hayot

Murojaatlarga yechim topildi

2-iyul kuni Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi Gulnora Ma'rufova navbatdagi fuqarolar qabulini o'tkazdi.

Unda Qashqadaryo, Andijon, Xorazm, Namangan viloyatlari hamda Toshkent shahridan kelgan fuqarolarning murojaatlari eshitildi. Ularda, asosan, moddiy yordam ko'rsatish va tadbirkorlik faoliyatida amaliy ko'mak berish masalalari ko'tarilgan.

Fuqarolarning muammolarini atroficha o'rgangan senator ularni hal etish yuzasidan tegishli choralar ko'rilishini ta'minladi. Jumladan, masalalarni samarali hal etish maqsadida Oila va xotin-qizlar qo'mitasi mutasaddilari bilan aloqa o'rnatilib, vaziyatni nazoratga olish hamda amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha aniq choralar belgilab olindi.

«Xalq so'zi».

Munosabat



Qadimiy Xiva shahrida O'zbekiston – Ozarbayjon birinchi parlamentlararo forumi bo'lib o'tdi. Ushbu nufuzli tadbir nafaqat tarixan qadriyatlarini va o'tmishi mushtarak xalqlarning birligini ifodalovchi anjuman, balki parlamentlararo hamkorlikning yangi, sifat jihatdan yuqori bosqichiga yo'l ochuvchi start nuqtasi hamdir. Forum ishida ishtirok etgan mehmonlar va parlament a'zolari uning ahamiyatiga katta baho berdi hamda u parlamentlararo munosabatlarni yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shishini e'tirof etdi.

SAMARALI MULOQOT PLATFORMASI

Muso GULIYEV, Ozarbayjon Respublikasi Milliy Mejlisi a'zosi, Mehnat va ijtimoiy siyosat qo'mitasi raisi:

– O'zbek va ozar xalqlari tili, dini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, madaniyati bir-biriga juda yaqin bo'lgan qarodosh millatlardir. Anjuman bo'lib o'tgan voqea – Xorazm shevasi va ozar tili bir-biriga yaqinligidan biz tarjimonlar bir-birimizni tushunamiz.

Shu ma'noda, turkiy xalqlar birdamligi juda muhim. Bugungi konferensiyaning asosiy maqsadlaridan biri ham ana shu birdamlikni mustahkamlash, do'stlik va hamkorlikni kuchaytirishdir. Forumda do'stlik guruhlarini faoliyatini kengaytirish, ularni parlamentlararo komissiyalar darajasiga ko'tarish, qo'shma qonunchilik tashabbuslari ishlab chiqish, yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamli transformatsiya va ekologiya kabi ustuvor yo'nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Muloqot jarayonida o'zbekistonlik hamkasblarimiz bilan fikrlarimiz mushtarak ekani yana bir bor namoyon bo'ldi.

Sayyora ABDUKARIMOVA, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisining o'rinbosari:

– O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida o'zaro do'stlik hamda yaqin hamkorlik munosabatlarining qaror topishida ikki davlat rahbarlari – Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyevning oliy darajadagi uchrashuvlari, samimiy muloqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu sa'y-harakatlar tufayli O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari strategik hamkorlik va ittifoqchilik darajasiga ko'tarildi. Bu siyosatdan tortib iqtisodiyot, ijtimoiy-gumanitar, ta'lim va madaniyat sohalarini qamrab olmoqda.

Shu o'rinda aytish lozim, keyingi besh yilda o'zaro savdo hajmi ikki baravar,

qo'shma korxonalar soni besh baravarga oshdi. Hozirgi kunda O'zbekistonda Ozarbayjon kapitali ishtirokida 240 dan ortiq kompaniyalar faoliyat yuritmoqda. Hududlar o'rtasidagi hamkorlik ham rivojlanmoqda. Forum o'tkazilgan Xiva shahri bilan Ozarbayjonning tarixiy Shusha shahri o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatilgan. Forumda ikki mamlakat parlamentlari, shuningdek, hududiy kengashlar o'rtasida hamkorlikni

jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga qaratildi. Forum doirasida o'tkazilgan panel sessiyalarda qonun ijodkorligi, parlament nazorati va faoliyati bilan bog'liq ko'plab masalalarda o'zbekistonlik senatorlar hamda deputatlar bilan fikr va tajriba almashdik.

Ishonch bilan aytish mumkinki, ushbu anjuman parlamentlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni yangi formatda rivojlantirishga turtki beradi. Yana bir

rag'batlantirishgacha bo'lgan asosiy masalalar muhokama markazidan o'rin oldi. Panel sessiyalarda qonun ijrosini nazorat qilish, biznes va investitsiya muhitini yaxshilash, raqamli islohotlar, kibernetika, madaniyat va turizm sohalaridagi aloqalar, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ayollar va yoshlarning jamiyatdagi o'rni kabi mavzularga e'tibor qaratildi. Kelgusida bunday muloqotlarni doimiy yo'lga qo'yishga kelishib olindi.

Ishonchim komilki, Ozarbayjon va O'zbekiston parlamentlari o'rtasidagi hamkorlik biznes va investitsiyalar rivoji uchun yangi uflarni ochadi, hamkorlikdagi sa'y-harakatlarimiz mamlakatlarimiz farovonligi va rivojining kafolatiga aylanadi.

Oydin ABDULLAYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

– Forumda muzokaralar davomida ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy sohalarida o'zaro tajriba almashish hamda yoshlar o'rtasida madaniy-gumanitar loyihalarni yo'lga qo'yish masalalariga ham keng o'rin berildi. Men dual ta'lim borasida O'zbekiston erishgan yutuqlar haqida gapirib berdim va yo'nalishdagi yangiliklar ozarbayjonlik hamkasblarimizni ham juda qiziqitirib qo'ydi. Ozarbayjon bilan dual ta'lim borasida hamkorlikda juda katta loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari mavjud va bu yuzasidan qator takliflar bildirildi.

Forumda 2025-2026-yillarga mo'ljallangan parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi ("Yo'l xaritasi"), shuningdek, O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi parlament hamkorligini institutsionalashtirishda muhim qadam bo'ladigan Parlamentlararo komissiya faoliyati reglamenti imzolandi.

«Xalq so'zi».

QADRIYATLAR VA EZGU MAQSADLAR MUSHTARAKLIGI

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekiston va Ozarbayjon o'zaro hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarib, ittifoqchilik munosabatlarni kengaytirish uchun mustahkam zamin hozirlashda davom etyapti.

Shu ma'noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2 – 4-iyul kunlari Ozarbayjonga davlat tashrifi ikki tomonlama aloqalarni butunlay yangi darajaga olib chiqishi, shubhasiz.

Tashrif doirasida energetika, mashinasozlik, metallurgiya, shaharsozlik, qishloq xo'jaligi, foydali qazilmalar, to'qimachilik, ipakchilik, farmatsevtika, elektrotexnika va boshqa tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralar chog'ida O'zbekiston – Ozarbayjon strategik sheriklik munosabatlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p qirrali hamkorlikni, eng avvalo, siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarida rivojlantirish masalalari muhokama qilinishi ko'zda tutilgan.

Aytish joizki, O'zbekiston – Ozarbayjon munosabatlari bugun yangi davr voqeyiligiga mos ravishda jadal rivojlanmoqda.

Bu haqda gap ketar ekan, ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash va barqaror mazmunli davlatlararo almashinuvning muhim bo'g'ini bo'lgan parlamentlararo muloqot haqida to'xtalish o'rinli. Ikki davlat parlamentlarida faoliyat yuritayotgan do'stlik guruhlari o'zaro ishonch, siyosiy muvofiqlikni mustahkamlash, keng ko'lami tashabbuslarni amalga oshirishda qo'shma yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Prezidentining Ozarbayjonga davlat tashrifi arafasida Xiva shahrida ikki mamlakat parlamentlari rahbarlari raisligida O'zbekiston – Ozarbayjon birinchi parlamentlararo forumi bo'lib o'tdi. Unda o'zaro hamkorlikni kengaytirish, qonun loyihalarni birgalikda muhokama qilish, parlament nazoratini institutsional shaklda yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida yangi bosqichda rivojlanayotgan bu kabi do'stona aloqalar amaliy mazmun bilan boyib borayotganidan har qancha faxrlansak arziydi.

Jamila BOBONAZAROVA, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi.

XOTIN-QIZLAR MASALASI – E'TIBOR MARKAZIDA

Tili va dili bir-biriga yaqin ikki mamlakat xalq vakillarini bir joyga jamlagan nufuzli O'zbekiston – Ozarbayjon birinchi parlamentlararo forumi yuqori saviyada, ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

Forum doirasida ikki mamlakat parlamentlari vakillari o'rtasida kechgan muloqotlarda hamkorlikni kengaytirish, qonun ijodkorligi va parlament nazorati sohasida tajriba almashish, shuningdek, oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha dolzarb fikr-mulohazalar bildirildi.

Asosiysi, shu yo'nalishlarda hayotga tatbiq etiladigan ishlarni qamrab olgan muhim hujjatlar qabul qilindi. Parlamentlararo hamkorlikning asosiy tamoyil va ustuvor yo'nalishlarini aks ettiruvchi Xiva deklaratsiyasi, 2025-2026-yillarga mo'ljallangan parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi ("Yo'l xaritasi"), Parlamentlararo komissiya reglamenti shular jumlasidan.

Shu o'rinda forumda xotin-qizlar va yoshlar masalalari e'tibor markazida bo'lganini ta'kidlash joiz. Ayni masalaga bag'ishlangan alohida uchrashuvda ikki mamlakat parlament a'zolari o'zaro tajriba almashdi, hamkorlikning yangi yo'nalishlarini belgilab oldi.

Xususan, "Jamiyat va davlat taraqqiyotida xotin-qizlar va yoshlar ovozi: parlament istiqboli" mavzuida bo'lib o'tgan panel sessiyada ayollar va yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, ularni qonunchilik yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hamda ikki davlat parlamentlari o'rtasida tajriba almashinuvini mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Sessiya doirasida ayollar va yoshlarning siyosiy faolligini oshirish, ularni zo'rvonlik hamda kamsitishlardan himoya qilish, kasbiy va oilaviy hayot muvozanatini ta'minlovchi qonunchilik asoslarini mustahkamlash, STEM, IT hamda innovatsion sohalarida

imkoniyatlarini kengaytirish va ular uchun xavfsiz, inklyuziv hamda barqaror ijtimoiy muhit yaratish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi.

Ozarbayjon Milliy Mejlisi a'zosi Tanzila Rustamxonli bu boradagi O'zbekiston tajribasini e'tirof etib, parlament darajasidagi aloqalarni chuqurlashtirish muhimligini ta'kidladi.

Darhaqiqat, O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlari strategik sheriklik darajasiga chiqdi. Davlat rahbarlarining qat'iy siyosiy irodasi bilan shakllangan mazkur aloqalar savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va ta'lim sohalarida faol rivojlanmoqda. Ayniqsa, parlamentlararo aloqalar ikki xalq o'rtasidagi do'stlikni chuqurlashtirishda muhim vositaga aylandi.

Forumdan ko'zlangan maqsad ham shu bo'lib, o'zaro muloqotlar davomida ikki tomonlama qonunchilikni uyg'unlashtirish, parlament nazoratini kuchaytirish, hududiy kengashlar va munitsipalitetlar o'rtasida hamkorlik platformalarini yo'lga qo'yish bo'yicha muhim kelishuvlarga erishildi.

Ikki mamlakat parlamentlari o'rtasida xotin-qizlar hamda yoshlarga oid qonunchilik bo'yicha tajriba almashish va ushbu yo'nalishda qo'shma tashabbuslarni davom ettirishga kelishib olindi.

Xiva forumi muloqotga boy, samarali va ochiq ruhda o'tdi. Bu nufuzli anjuman parlament diplomatiyasining yuksak namunasi hamda muhim bosqich sifatida tarixga muhurlandi.

Gulnora MA'RUFOVA, Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi.

ERTAMIZ EGALARI UCHUN QULAY IMKONIYATLAR

Mamlakatimizda yoshlarga nafaqat ertangi o'zgarishlarga sabab bo'ladigan muhim kuch, balki jamiyat taraqqiyotining mustahkam tayanchi sifatida qaraladi. Yoshlar tom ma'noda O'zbekistonning eng katta boyligi, yorug' kelajagimiz bunyodkoridir.

Prezidentimiz rahbarligida yoshlar siyosati bo'yicha olib borilayotgan ishlar dunyo miqyosida tan olinmoqda va islohotlar samarasini yigit-qizlarimiz o'z kundalik hayotida sezmoqda, his etmoqda.

Ushbu yo'nalishdagi faol islohotlar natijasida ayni vaqtda 30 nafar yigit-qizimiz dunyodagi "TOP-10", 500 nafari "TOP-100" va 1,5 ming nafari "TOP-300" dan joy olgan nufuzli universitetlarda tahsil olmoqda. "Bir million dasturchi" loyihasi hayotga samarali tatbiq etilib, uning doirasida 325 ming nafar yosh o'qitilgani e'tiborga molik, albatta.

Startaplarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham tizim yaratilib, ularni moliyalashtirishga 145 mln. dollar venchur sarmoya kiritildi. Bu qarar 1 mlrd. dollarga yetkaziladi. Ushbu ishlar maktabdan boshlanib, o'quvchilar uchun "mohirlik va biznes soati" kiritiladi va ularning g'oyasini startapga aylantirishga 100 mlrd. so'm grant ajratiladi. Bularning barchasi yurtimizda ertamiz egalarga bo'lgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlikning yaqqol ifodasidir.

Davlatimiz rahbarining shu yil 30-iyun – Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqini tinglab, mamlakatimizda bu boradagi ishlar izchil davom etishiga amin bo'ldim. Har birimizning qalbimizdan, yuragimizdan chuqur joy egallagan nutqda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan dolzarb tashabbuslar ilgari surildi. Bu nafaqat shu tadbirga ishtirok etgan yoshlar, balki yurtdoshlarimizni ham behad quvontirdi.

Ma'ruzada ko'tarilgan har bir masala va ularning yechimiga oid taklif va tashabbuslarni tinglab, ularni qayta-qayta o'qib, yangi O'zbekiston yoshlari shaxsan davlat rahbarining e'tiborida ekaniga yana bir bor guvoh bo'ldik. Uchrashuvda qilingan ishlar bilan birga, ayrim masalalar tilga olindi va ularga aniq yechimlar ko'rsatib o'tildi.

Yoshlarga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki davlat va jamiyat boshqaruvida ham,

biznesni taraqqiy ettirishda ham, umuman, barcha soha rivojida salohiyatli yoshlar muhim o'rin tutadi. Ular jamiyat uchun "yangi qon" vazifasini o'taydi. Shu nuqtai nazardan, yurtimizda har bir yosh qayerda yashashi va ishlashidan qat'i nazar, davlatimizning doimiy e'tiborida.

Bugun o'qishga kira olmagan maktab bitiruvchilari yoki texnikum va oliygo'harli tugalayotgan talabalar endi qayerda ishlash, deb tashkilotma-tashkilot sarson bo'lmaydi. Zero, ularni band qilish bo'yicha 2 ta alohida dastur qabul qilingan. Bu borada "Aloqabank" va "Milliy bank"ka 300 mln. dollar ajratilgani, ular "Yoshlar biznesi" dasturi doirasida 100 ming nafar yoshni, "Kelajakka qadam" orqali 140 ming oliygo'har bitiruvchisini daromadli ish bilan ta'minlashi, shubhasiz, ming-minglab yoshlarning ayni dilidagi gap bo'lib, ularni faollikka chorlagani rost.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, "Milliy bank" bilan birga oliygo'har, texnikum, kasbiy ta'lim bitiruvchilarini ish beruvchilar bilan bog'laydigan platformani ishga tushiradi. Mutasaddi vazirliklar "Harakatda daromad" elektron tizimini yaratib, ta'tilidagi 3 mln. nafar yoshni malaka talab qilmaydigan ishlar bilan band etadi. Bu shuncha oilaga daromad kiradi, ularning orzu-istaklari ro'yobga chiqadi, deganidir.

O'zLiDeP saylovoldi dasturida ham yoshlarga sifatli ta'lim berish, kasb-hunar o'rgatish, tadbirkorlikka jalb qilish orqali ish o'rni yaratish, zamonaviy innovatsiyalarga yo'l ochish, sun'iy intellektni rivojlantirish va tadbirkorlikni rag'batlantirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Ushbu tarixiy nutq, unda bildirilgan tashabbuslar hayotimizda tom ma'noda ijobiy tarixiy burilish yasaydi. Bu jarayonda mamlakatdagi yetakchi siyosiy kuch sifatida O'zLiDeP va uning Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi yoshlar hayotida, albatta, ijobiy o'zgarishlar qiladi. Yigit-qizlarda motivatsiya uyg'otib, o'z oldiga qo'ygan katta marralarga erishishi uchun partiyaning barcha deputatlik korpusi bir tanu bir jon bo'lib, ularga har tomonlama ko'mak beradi. Zotan, bugun katta orzu-maqсадlar bilan Vatani taraqqiyotiga hissa qo'shaman, deya belini mahkam bog'lab maydonga chiqayotgan shijoatli yoshlarni qo'llab-quvvatlash barchamizning burchimizdir.

Aktam HAITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi
O'zLiDeP fraksiyasi rahbari.

YOSHLARNI KELAJAKKA TAYYORLASH MAS'ULIYATI

XXI asrning ikkinchi yarmi noan'anaviy, barcha sohada avvalgilarga o'xshamagan keskin va raqobatga to'la davr bo'lishidan dalolat beriyapti. Ayniqsa, mamlakatlar rivoji faqat iqtisodiy emas, insoniy resurslarning zamonaviy chaqiriqlarga qanday javob bera olishi bilan o'lchanishi ko'zga yaqqol tashlanmoqda.

Bugun texnologiyalar uzoqni yaqin qilyapti, sun'iy intellekt, IT masalalarida esa kutilganidan ancha tez oldinga siljishlar ro'y beriyapti. Ammo bunday o'zgarishlardan faqat bilimlilar foydalanayapti, bilimsizlar esa yo'q.

To'g'ri, bu juda murakkab jarayon: odatiy mashina haydash yoki samolyot boshqarish emas, insoniy resurslarning zamonaviy chaqiriqlarga tayyorlash haqida o'ylashimiz kerak.

Albatta, keng imkoniyat va resurslarga ega davlatlar bu masalalarga jiddiy e'tibor qaratib, aniq choralar ko'ryapti. Ana shunday bir paytda O'zbekiston sobiq ittifoqdan qolgan meros, kommunistik g'oya, boqimandlik – barcha muammolarni davlat hal qilib beradi, degan aqidada ulg'aygan odamlarning farzandlari va hatto nevaralarining ongu tafakkurini transformatsiya qilishga majbur.

Chunki bugungi avlod vakillaridan rivojlangan dunyo imkoniyatlari bilan birga, mafkuraviy asoratlar qoldig'ini ham yengib o'tish talab etilyapti va bu, albatta, ulami o'z tengdoshlaridan, ya'ni avvaldan ana shu raqobatli jamiyatlarda ulg'aygan yoshlarga nisbatan ko'proq izlanishga majbur qilmoqda.

Davlatimiz rahbarining Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazgan yig'ilishida yangi avlod vakillariga murojaat qilib, raqobatbardosh bo'lishga chaqirgani zamirida aslida ana shu maqsad mujassam. Bugun maktabni bitirgan barcha o'quvchilarni oliy ma'lumotli qilish kerak, degan xomxayollar davri o'tdi. Yoshlarning ma'lum bir qismida akademik bilim olishga salohiyati bo'ladi, qaysi birlarida esa tadbirkorlik ko'nikmasi yuqori... Dunyoning "Top-100" talik universitetlariga kiradigan bolalar ham maktabdanoq ko'rinib qoladi. Demak, ularni maktabdanoq

ajratib olish, kerak bo'lsa, alohida sharoitlar yaratib, raqobatga tayyorlash lozim. Hunarmandchilik yoki tadbirkorlikka layoqatli bolalarga, masalan, 7-sinfgacha umumiy bilim berilib, keyin ularni qo'llab-quvvatlashning boshqa mexanizmlari o'yab topilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Boshqacha aytganda, ularning hayotda o'z yo'llarini topib ketishlari uchun davlat yo'l ko'rsatishi kerak.

Yig'ilishda Prezident aynan shular haqida gapirdi. Bu juda jiddiy chaqiriq bo'ldi, aslida. Bu endi eski mafkuraviy kommunistik g'oya sarqiti – hamma teng, degan g'oyani sindirib, haqiqiy hayot raqobatiga tayyorlashga qaratilgan da'vat ham edi. Ayni paytda ushbu da'vat yoshlarni oldinda kutib turgan juda og'ir va murakkab raqobat muhitidan ogohlantirish bo'ldi. Yangi O'zbekiston kelajagi haqida gap ketganida aytilish

Umuman, yangi O'zbekistonda yoshlarga ularni qanchalar yaxshi ko'rishimiz, har doim qo'llab-quvvatlashimizni aytish barobarida zimmalariga olishlari kerak bo'lgan mas'uliyat haqida gapirish, eslatish jarayoni ham boshlandi. Zero, yurtimiz kelajagi yangi avlod tafakkuridagi o'zgarishlar ham chambarchas bog'liq.

Alisher QODIROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari.



O'tgan yili yurtimiz yoshlari "TOP-500" talik oliygo'harlarga kirish bo'yicha Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egalladi.

Yosh tadbirkorlar tashkil qilgan 261 ta korxonaning yillik oboroti 100 milliard so'mdan oshdi.

"Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 325 ming nafar yosh o'qitildi.

150 mingdan ziyod yoshlarimiz xalqaro til sertifikatlarini oldi.

Bu yil 35 milliard dollarlik 8 300 ta loyiha ishga tushirilib, 292 mingta ish o'rni yaratildi.

YURTIMIZ TARAQQIYOTINING TAYANCHI

Prezidentimizning yaqinda yoshlar bilan uchrashuvi kelajagimiz bunyodkorlarini yana bir bor katta orzular va marralar sari yetakladi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Sababi uchrashuvda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, salohiyati va iqtidorini yuzaga chiqarish bo'yicha yangi tashabbuslar ilgari surildi, ilhomlantiruvchi misollar, mamlakatning ertangi kunini belgilashga qodir g'oyalar va yechimlar taqdim etildi. Davlatimiz rahbari iqtidorli yoshlar bilan muloqot qilib, ularning innovatsiya, "yashil" iqtisodiyot, kreativ sanoat, tadbirkorlik va IT sohalaridagi ilg'or ishlanmalari va yutuqlari bilan tanishtirdi.

Darhaqiqat, bilagida kuch-g'ayrat, har bir harakatida azmu shijoat jo'sh urgan, bilim va odobda, aql-zakovatda tengsiz yoshlarimizni ko'rib har qanday xalq, har qanday davlat bizga havas qilsa arziydi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bugun butun dunyo yoshlarimizning ilmi-fan, ta'lim, IT, madaniyat, san'at va sportdagi yutuqlarini ko'rib, salohiyatimizga baho bermoqda, ertangi kunimiz poydevori mustahkam ekaniga ishonch hosil qilmoqda.

Bugun rivojlangan qaysi davlatni olmag – Singapur, Malayziya, Yaponiya, Xitoy deysizmi, tarixiga nazar solsangiz, avvalo, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratganiga, ta'limga sarmoya kiritganiga guvoh bo'lasiz.

Prezidentimiz islohotlar boshlangan ilk kunlardan qo'lim – tarbiya – innovatsiya" zanjirini yaratishga kirishdi, bu harakatlar bugun aniq natijalar bermoqda.

Ikki yil oldin xalqaro fan olimpiadalarida 7 ta hududdan 45 nafar o'quvchi sovrin olgan bo'lsa, o'tgan olti oyda 166 ta medal qo'lga kiritildi. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 325 ming yosh o'qitildi va bugun ular IT dan katta daromad topmoqda. "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarning ta'lim olishlari uchun

nufuzli xorijiy oliy o'quv yurtlariga yuborish ko'lami ikki barobar oshirildi. Oliy o'quv yurtiga imtihon topshirmay talaba bo'lishdek yuksak sharafiga erishish bo'yicha 10 dan ortiq imtiyozlar joriy qilindi.

Yana bir quvonarli jihati shundaki, respublikaning beshta oliy ta'lim muassasasi 8 ta fan yo'nalishi bo'yicha Buyuk Britaniyaning nufuzli "SQ Quacquarelli Symonds" xalqaro reyting agentligi tomonidan e'lon qilingan dunyodagi eng yaxshi universitetlar "TOP-1000" talik ro'yxatidan joy oldi.

"Ta'lim – kelajak sarmoyasi" degan ezgu g'oya zamirida har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratishga katta e'tibor qaratilayotir. Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, yoshlarimizga sifatli ta'lim va tarbiya berish, zamonaviy kasb va hunarlar, xorijiy tillarni o'rgatish, hayotda munosib o'rin topishi uchun zarur sharoitlar yaratish eng asosiy vazifamiz va burchimizga aylangan.

Yoki o'qishga kira olmagan maktab bitiruvchilari hamda texnikum va oliygo'harli tugalayotgan talabalarni band qilish bo'yicha alohida dasturlar qabul qilingani, shu maqsadda 300 mln. dollar ajratilgani yoshlarga bo'lgan yuksak e'tiborning yorqin misoli emasmi? Bu – yangi O'zbekistonda hiech bir farzandi e'tibordan chetda qolmaydi degani.

Shubhasiz, har qanday mamlakat taraqqiyoti bilimli, sog'lom, mard va jasur, doimo oldinga intilib yashaydigan avlodga bog'liq. Yangi O'zbekiston yoshlarining ana shunday fazilatlar egasi bo'lishiga ishonamiz.

Jahongir MAMAJONOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Izchil, manzilli va keng qamrovli siyosat

30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan uchrashuvda davlat rahbarining nutqi va bildirgan tashabbuslari yoshlarga oid siyosatning izchilligi, manzilliligi hamda keng qamrovli ekanini yana bir bor tasdiqladi.

Nutqda ta'kidlanganidek, bugungi kunda yoshlar mamlakat rivojidadagi eng muhim omilga aylangan. Ta'lim, fan, innovatsiya, startaplar, sanoat, san'at va sport kabi sohalardagi muvaffaqiyatlar bu fikrni to'la tasdiqlaydi. Masalan, "TOP-500" talikka kirgan oliygo'harlarga o'qiyotgan O'zbekiston yoshlarining ko'paygani, "Bir million dasturchi", "Raqqamli avlod qizlari", "Kelajak liderlari" kabi loyihalar doirasida minglab yigit-qizlarning zamonaviy bilim va

ko'nikmalarga ega bo'layotgani e'tiborga molik. Ayniqsa, 83 mlrd. dollarlik yangi loyihalar doirasida yarim million ish o'rni yaratilishi va "yashil" iqtisodiyot, muhandislik, geologiya, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda kadrlar tayyorlanishi mamlakat iqtisodiy istiqbolini belgilaydi.

Yoshlarning nufuzli oliygo'harlarga kirishi, startaplar yaratishi, sun'iy intellekt va raqqamli texnologiyalarga oid bilimlar bilan qurollanishi uchun davlat tomonidan keng

imkoniyatlar yaratilayotir. Prezident tashabbusi bilan "TOP-300" talikdagi oliygo'harlarga kirgan yoshlarga 20 ming dollargacha imtiyozli kreditlar ajratilishi, startaplarni moliyalashtirishga venchur sarmoyaning 1 mlrd. dollarga oshirilishi, maktablarda "mohirlik va biznes soati" joriy qilinishi yoshlarimiz uchun nafaqat ta'lim, balki amaliy iqtisodiy faoliyatda ham mustahkam poydevor yaratishga qaratilgan muhim choralaridir.

Shu bilan birga, har bir sohada yoshlar uchun seleksiya, xorijiy tajriba va liderlik malakasiga ega bo'lish imkoniyatlari yaratilmoqda. "Kelajak liderlari" dasturi yordamida har yili 100 nafar iqtidorli yoshning rahbarlik salohiyati rivojlantiriladi.

Bu davlat boshqaruvi tizimida sifat o'zgarishlarining asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim va iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi ham davlat siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Prezident tashabbusi bilan madaniyat, kitobsevarlik, san'at va musiqa yo'nalishidagi tanlovlar g'oliblariga qo'shimcha imkoniyatlar yaratilyapti. "Iqtidor" maktab ansambli tanlovi viloyat bosqichi g'oliblarining musiqa maktablarida bepul ta'lim olishi yoshlarni ma'naviy rivojlantirishga qaratilgan muhim qadamlardir.

G'alaba bog'ida ochildan "Millat fidoyilari" monumenti ham yoshlarda vatanparvarlik

tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu kabi g'oyaviy-ma'naviy tarbiya orqali yoshlar turli zararli ta'sirlardan asraladi va yurtga sadoqat ruhida kamol topadi.

Yuqoridagi barcha tashabbus va amaliy ishlar Prezidentimizning "Sizlar – yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz" degan so'zlarida ortida qanchalik katta ishonch va mas'uliyat borligini namoyon qiladi. Bugungi kunda yoshlar uchun berilayotgan imkoniyatlar nafaqat ularning kelajagi, balki yangi O'zbekistonda taraqqiyoti uchun ham mustahkam zamin yaratmoqda.

Mavluda IBRAGIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Innovatsiya

Mikrobiovak biopreparati yaratildi

Guliston davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va biokimyo ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriyasida o'simliklarning ildiz tizimidan ajratib olingan bakteriya shtammlari asosida mikrobiovak biopreparati yaratildi.

– Mikrobiovak ekologik sof organik mahsulotlar yetishtirishda yuqori samara beradigan mikrobiopreparat hisoblanadi, – deydi ilmiy-tadqiqot instituti direktori, professor Habib Qo'shiyev. – Ya'ni tuproq unumdorligini oshirish, o'simliklardan mo'l va sifatli hosil olishda ekologik zararsiz vosita

sanaladi. U o'simlikka sug'orish orqali yetkaziladi.

Ma'lum qilinishicha, yangi biopreparat o'simliklarni patogenlarga chidamli qilib, immunitetini oshiradi. Biopreparat yordamida o'simlik urug'ining unuvchanligi ham oshadi. Ekihsdan oldin urug'larga 1 litr suvda suyultirilgan preparat bilan ishlov



beriladi. Tomchilatib sug'orishda 4 litr biopreparat 1 tonna sug'ora aralashiriladi. O'simlik bargigacha 4 litr biopreparat sekkatlanadi.

Ahmadali ShERNAZAROV
(«Xalq so'zi»).

Xushxabar

"Tulpor" milliy brendi: zamonaviy va qulay

Quvasoy shahridagi "Pakana" mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan "Qo'qon" erkin iqtisodiy zonasida Xitoy investitsiyasi ishtirokida qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqarish loyihasining qurilish ishlariga kirishildi.

– Loyiha qiymati 30 million dollar va korxon qurilishi uchun 7 gektar yer maydoni ajratildi, – deydi Quvasoy shahar hokimi o'rinbosari Salimjon Nishonqulov. – Bu loyiha doirasida keyingi uch yil mobaynida 300 million dollar hajmida investitsiya kiritish rejalashtirilgan. Shu

tariqa bu yerda yaqin istiqbolda yirik mashinasozlik majmuasi barpo etiladi. E'tiborlisi, mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda o'ziga xos ko'rinishga ega, qishloq xo'jaligi ekinlari va bog' qator oralariga ishlov berishga mo'ljallangan keng turdagi traktorlar ishlab chiqarish



belgilangan. Zamonaviy va qulay texnikalar mamlakatimiz ichki bozoriga yo'naltiriladi, shuningdek, Markaziy Osiyo, MDH mamlakatlariga eksport qilindi.

Botir MADIYOROV
(«Xalq so'zi»).

O'ZBEKISTON – YEOLII: SAVDO, INVESTITSIYA, TRANSPORT HAMKORLIGI YO'LIDA

O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOLII) bilan munosabatlari mamlakatning tashqi siyosat va iqtisodiy strategiyasida muhim o'ringa ega bo'lib, mazkur xalqaro tashkilotga a'zo davlatlar bilan hamkorlik biz uchun mintaqaviy integratsiyani mustahkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston

YEOLIIga a'zo bo'lmas-da, ittifoq bilan munosabatlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Bu munosabatlarni asosan savdo, investitsiyalar, transport va logistika sohalarida faollashtirmoqda. Mamlakatimizning strategik maqsadi YEOLII davlatlari bilan o'zaro manfaatli sheriklikni mustahkamlash orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirishdir.



Mushohada

YEOLII tashkil etilganidan buyon o'n yil ichida mustahkamlandi, a'zo va kuzatuvchi davlatlarning iqtisodiy salohiyati kuchaydi. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi muvaffaqiyatli integratsion birlashma sifatida shakllandi. Birlashma doirasida tovar ayirboshlash hajmi jiddiy bo'lib, dunyodagi yetakchi iqtisodiy davlatlar bilan tenglashtirish mumkin. YEOLII'da ihsizlik darajasi hozirda 2,8 foizni tashkil etadi, bu dunyodagi eng yaxshi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. So'nggi paytlarda Yevroosiyo, Afrika, Lotin Amerikasi davlatlari va qator ko'p tomonlama tuzilmalar bilan o'zaro manfaatli aloqalar faol rivojlanmoqda.

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlari o'zaro hisob-kitoblarning 93 foizini milliy valyutalarda amalga oshirayotgani milliy valyutalar qadriyatini mustahkamlanishiga katta hissa qo'shadi. Ammo YEOLII salohiyati hali to'liq islatilmagan, tashkilotning jahon iqtisodiyotidagi ulushini ikki barobar oshirish mumkin. Bugungi kunda tuzilma sherik davlatlar bilan birga dunyo aholisining beshdan bir qismini tashkil etadi va hudud bo'yicha eng katta birlashma hisoblanishini inobatga olsak, uning imkoniyatlari beqiyos ekanini oydinlashadi. Shu nuqtai nazardan, qo'shma sa'y-harakatlar orqali Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlari noyob va brend mahsulotlarini yaratishlari hamda ularni jahon bozoriga olib chiqishi mumkin. Transport-logistika tarmog'ini rivojlantirish zarur, shunda birlashma o'zini global tranzit markazi sifatida pozitsiyalashtirishi mumkin bo'ladi. Milliy iqtisodiyotlar bir-birini to'ldirishi lozim, bir xil tovarlar va takroriy ishlab chiqarishlar bilan raqobatlashmaslik kerak. Shunday qilib, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi shunchaki maydon bo'lib qolmaydi, yangi ishtirokchilar uchun jozibador bo'la oladi.

Kezi kelganda aytish joiziki, YEOLII hududning strategik joylashuvi tranzit yo'llari uchun katta salohiyatga ega. Transport-logistika tarmog'ini rivojlantirish orqali ittifoq davlatlari o'zini dunyodagi muhim tranzit xabaridan biri sifatida namoyish etishi mumkin. Bu esa qo'shimcha daromadlar va investitsiyalarni jalb

qilishga yordam beradi. Bu borada O'zbekiston "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston", "O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston" transport yo'llarini, Rossiya "Shimol – Janub" tashabbuslarini ilgari suryapti. Yangilangan transport infratuzilmasi qurilishi va undan foydalanish esa mintaqaviy iqtisodiy faollik kuchayishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, aholi daromadlari oshishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, raqobatni kamaytiradi va mahsulotlar sifatini oshirishga imkon beradi. Tovarlar, kapital va mehnat resurslarining erkin harakatini rag'batlantirib, birlashmaning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshiradi.

manfaatlarni muvozanatlashtirish muhim. Mamlakat mintaqada barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlash maqsadida barcha sheriklar bilan konstruktiv muloqotni davom ettirmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston o'z milliy manfaatlarini himoya qilishga alohida ahamiyat beradi, ayniqsa, savdo shartnomalari va investitsiya loyihalari. Kuzatuvchi davlat maqomidagi to'rt yillik hamkorlik davrida O'zbekistonning YEOLII mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 80 foiz o'sdi va 2024-yil yakuni bo'yicha 18 mlrd. dollarni tashkil etdi. Savdo operatsiyalari nomenklaturasi, avvalambor, sanoat

qo'shildi. Bank bilan hamkorlikda infratuzilmani modernizatsiya qilish, metallurgiya, to'qimachilik, kimyo sohalar va boshqa strategik tarmoqlarda istiqbolli loyihalar portfelini ishlab chiqilmoqda. Davlatimiz rahbari Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining yig'ilishidagi nutqida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan sheriklikni yanada rivojlantirishning muhim yo'nalishlarini ko'rsatib o'tdi. Eng avvalo, O'zbekiston o'zaro savdo aylanmasini kengaytirish uchun qulay sharoitlarni shakllantirishga muhim ahamiyat qaratyapti. Mamlakatimiz o'tasidagi erkin savdo hududi faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq barcha kelishuvni to'liq hajmda bajarmoqda.

Mamlakatimiz, shuningdek, savdoni qo'llab-quvvatlashda texnik tartibga solishning raqamli tizimlari va ittifoqning raqamli transport yo'llarini ekotizimi, Yevroosiyo qayta sug'urtalash kompaniyasi kabi vosita va mexanizmlarga qo'shilishdan manfaatdor. Bu o'zbekistonlik tadbirkorlar va ishbilanmonlar uchun sharoitni sezilarli darajada yengillashtiradi, mamlakatimizning tovar bozorlariga kirishida qulay imkoniyatlarni ta'minlaydi.

Ikkinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt jadal rivojlanib borayotganini hisobga olib, raqamlashtirish sohasida ko'p tomonlama hamkorlik qilish ham katta istiqbolga ega. Shu nuqtai nazardan, Prezidentimiz elektron savdo, mahsulotlarning raqamli markirovkasi, yangi avlod logistika platformalarini yaratish, aniq tarmoqlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha

Demak, O'zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasida amaliy hamkorlikni kengaytirishga sodiq. 2020-yilning 11-dekabrda kuzatuvchi maqomini olgan O'zbekistonning taklif va tashabbuslari, amaliy g'oyalari YEOLII doirasidagi hamkorlik ko'lamini kengaytirishga hissa qo'shdi. O'zbekistonning ko'p tomonlama dastur va loyihalarda ishtirok etishi iqtisodiy sheriklikni mustahkamlashga xizmat qiladi va bugungi sharoitda mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga imkon beradi. O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan munosabatlari mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish va iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirishga qaratilgan strategik yo'nalishdir. Bu hamkorlik orqali O'zbekiston o'z iqtisodiy salohiyatini oshirish, yangi bozorlarga chiqish va mintaqadagi barqarorlikni mustahkamlash imkoniga ega bo'lyapti. Keyingi yillarda ushbu aloqalar yanada faollashib, ikki tomon uchun ham manfaatli natijalarni berishi kutilmoqda.

Obidjon HAMIDOV,
Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

NAMANGANDA NIMA GAPLAR?

Xalqarogullar festivali davom etadi

Xabaringiz bor, Namangan shahridagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog'i hamda "Afsonalar vodiysi" tematik parkida qariyb qirq kundan buyon 64-Xalqarogullar festivali davom etmoqda.

Anjuman dasturidan o'rin olgan madaniy tadbirlar rang-barang bo'lib, ishtirokchilarning har biri alohida mazmunga yo'naltirilgan gul ko'rgazmalari, milliy o'yinlar va san'atkorlarning betakror chiqishlari hamda boshqa ko'ngilochar tomoshalardan olam-olam zavq olishayotir.

Festival nafaqat yurtimiz ahli, balki dunyoning qator mamlakatlaridan ham nafosat shaydolarini o'ziga jalb etayotgani bilan ahamiyatli, – deydi Namangan viloyati hokimining o'rinbosari Botirjon Nuriddinov. – Buni bayram tomoshalaridan bahra olish uchun hozirgi kungacha qadar 7 milliondan ziyod mehmonlar tashrif buyurgani, ularning 700 ming nafardan ko'prog'ini esa xorijiy sayyohlar tashkil qilganidan ham bilish mumkin.

Aytish lozimki, har yilgidan o'zgacha shukuhda o'tayotgan gullar saylida qatnashish istagidagi nafosat shaydolari oqimi kamaygani yo'q. Tashkilotchilar shuni hisobga olib, festival davriyligini yana ikki haftaga uzaytirishga qaror qildi. Demak, bu yilgi anjuman shodiyonalari davom etadi.



Faol tadbirkor – ehtiyojmand oilalarga madadkor

Savdo-sanoat palatasi Namangan viloyati boshqarmasi tomonidan mahalliy iqtisodiyot rivojiga munosib hissa qo'shayotgan tadbirkor Qudratbek Abdullayevning yoshlar bilan uchrashuvi tashkil etildi. Uch mingdan ziyod 9 – 11-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan muloqot chog'ida qator tashabbuslar ilgari surildi.

Salohiyatli tadbirkor, birinchi navbatda, ijtimoiy himoyaga muhtoj 20 ta oilaning oilinglarda tahsil olayotgan farzandlari to'lov-shartnoma xarajatlarini o'zi rahbarlik qilayotgan "Afsonalar bog'i" mas'uliyati cheklangan jamiyati to'liq qoplab berishini aytdi. Bundan tashqari, yana 20 nafar yosh maxsus masofaviy ta'lim dasturlariga jalb etiladi. Ularning o'qish xarajatlari ham moliyalashtirilib, mashg'ulotlar yakunida muqim ish bilan ta'minlanadi.

Bugungi uchrashuvda ishbilanmon yurtdoshlarimiz elga madadkor bo'layotganining yana bir amaliy isbotini ko'rdik, – deydi bitiruvchi sinf o'quvchisi Xayrullo Bekmirzayev. – Bunday insonlar safi qancha kengaysa, shuncha yaxshi. Saxovatli tadbirkorning yoshlarni o'taligga olish borasidagi ushbu tashabbusi bizga go'yoki qanot bag'ishladi.

Toshloqliklar tomorqasiga ham oqar suv keldi

To'raqo'rg'on tumanining Toshloq mahallasidagi xonadonlar chorak asrdan buyon ekinlarni sug'orishda jiddiy muammoga duch kelishardi. Gap shundaki, ular noiljlikdan sizot suvlarni nasoslar orqali tortib, ekinlarni amal-taqal sug'orishga majbur bo'layotgandi.

Yaqinda ana shu muammo hal etildi. "Kambag'allikdan farovonlik sarfi" dasturi doirasida ajratilgan 3 milliard 195 million so'm'dan ziyod mablag' hisobiga hududdan 7 kilometr uzoqlikda oqib o'tuvchi Shimoliy Farg'ona kanalidan alohida quvurlar tortildi va mahallaga oqar suv keltirildi.

Aholining uzoq yillik orzusi amalga oshdi, buning uchun davlatimizdan minnatdormiz, – deydi "Toshloq" MFY raisi Farhod Mamatov. – Bugunga kelib 670 ta xonadon suv bilan to'la ta'minlandi. Endi dehqonchilikdan ko'nglimiz to'q, ekinlarimiz yashnaydi, mahalladoshlarimiz rizq-ro'ziga baraka kiradi.

Qudratilla NAJMIDDINOV
(«Xalq so'zi»).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrda PQ-330-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-aprelda 233-sonli qarori hamda 2025-yil 29-martdagi 13-sonli bayoniga asosan Sirdaryo viloyati hududidan o'tuvchi davlat ahamiyatidagi D041 "Yangiyer sh. – Do'stlik sh." avtomobil yo'lining 0-26 km. qismini outsorsing asosida ekspluatatsiya qilish bo'yicha 2025-yil 30-iyun sanasida LOT:25110012439364 raqami bilan etender.uzex.uz platformasi orqali e'lon berildi. Tanlov 2025-yil 7-iyul sanasida yakunlanadi.

Shuningdek, Sirdaryo viloyati hududidan o'tuvchi davlat ahamiyatidagi D034 b Guliston shahriga (113 km.dan) avtomobil yo'lining 0-20 km. qismini outsorsing asosida ekspluatatsiya qilish bo'yicha 2025-yil 2-iyul sanasida LOT:25111006439757 raqami bilan etender.uzex.uz platformasi orqali e'lon berildi. Tanlov 2025-yil 18-iyul sanasida yakunlanadi.

Yo'l qurish va ta'mirlashga ixtisoslashtirilgan xususiy sektorlarni ushbu tanlov va tender savdolarida faol ishtirok etishga taklif qilamiz.

Qiziqish bildirishga so'rov

«O'zbekistonda Raqamli Inklyuzivlik» loyihasi
Kredit raqami: 7425-UZB.
Xizmat tavsifi: "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MCHJ "O'zbekistonda Raqamli Inklyuzivlik" loyihasi doirasida UZ-DIP-497864-CS-INDV – Yaponiya bozorining BPO va ITES yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis xizmatlariga muvofiq xalqaro shaxslarni ("Individual konsultant") qiziqish bildirishga taklif qiladi.

Qiziqish bildirishning oxirgi muddati: 2025-yil 21-iyul.

Batafsil ma'lumot uchun: udip@it-park.uz, (+99871) 209-11-99, (+99890) 929-60-49.

REKLAMA

Badiiy akademiyaning Markaziy ko'rgazmalar zalida O'zbekistonning birinchi ayol fotoreportyori Dina Xojayevaning "Dublsiz olingan fotosuratlar" nomli shaxsiy ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 11 845 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahilalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzil:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 00.45 Topshirildi — 02.35

1 2 3 4 5 6